



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BILAN OTA-ONALAR HAMKORLINING SAMARALI NATIJALARI

Ishmuratov Eshkobil Saparaliyevich

Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani 26-sonli DMTT metodisti.

“Mercy Corps” xalqaro tashkiloti mentori.

Annotatsiya: Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda bolalarning yetuk shaxs sifatida shakillanishida ta'lism tashkilotlari va ota-onalar hamkorligi muhim ro'l o'ynaydi. Hamkorlik natijasida bolaning o'y-xayolida ta'lism tashkiloti bilan bo'layotgan hamkorlik uni ertangi kuniga ishonchini ortishiga sabab bo'ladi. Oilam va bog'cham meni doimiy, birgalikda, uya borgan vaqtimda uyda, bog'chaga kelganimda bog'chada yolg'iz qo'ymaydi va ularga istak hamda xohishlarimni erkin bildiraman degan vaziyatni yaratadi.

Kalit so'zlar: MTT, Hamkorlik, ota-onsa, ta'lism va tarbiya.

Аннотация: В современный бурно развивающийся век образовательные организации и сотрудничество родителей играют важную роль в формировании детей как зрелых личностей. В результате сотрудничества сотрудничество с образовательной организацией в воображении ребенка повысит его уверенность в завтрашнем дне. Моя семья и детский сад всегда вместе, когда я прихожу домой, они не оставляют меня одного дома, когда я прихожу в детский сад, и создают ситуацию, когда я свободно выражаю им свои пожелания и желания.

Ключевые слова: МТМ, Сотрудничество, родители, образование и воспитание.

Abstract: In today's rapidly developing age, educational organizations and parental cooperation play an important role in the formation of children as mature individuals. As a result of cooperation, the cooperation with the educational organization in the imagination of the child will increase his confidence in the future. My family and kindergarten always, together, when I go home, they don't leave me alone at home, when I come to kindergarten, and they create a situation where I freely express my wishes and desires to them.

Keywords: MTT, Cooperation, parents, education and upbringing.

Kirish. Ota-onalar ta'lism tashkilotining asosiy sheriklaridir. Ota-onalar bolalariga ta'limga bo'lgan qiziqish va istaklarini inobatga olib, doimiy tarzda sheriklik qilishi kerak. Har bir bolaning o'z olami, fe'l-atvori turfacha bo'ladi. Shunday ekan ushbu kichik beg'ubor olamlarini tushunib, yana ma'nomma'zmun bag'ishlash, o'z "Men"ini shakillantirish uchun ota-onalar bilan mustahkam hamkorlik metodlarini yo'lga qo'yish juda ham ahamiyatlidir. Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, shaxsiy manfaatdorlik, eski qarashlardan xalos bo'lismi, o'z faoliyatiga aks ettiruvchi munosabatning paydo bo'lishi usullarini qamrab oladi. Farzand ta'lism va tarbiyasi rivojlantirish tamoyili asosida amalga oshirilayotgan bu hamkorlik bolalarni qiziqtirish qobiliyatini, o'z ta'lism faoliyatini tahlil qilishni, hamda ota-onsa tomonidan farzandini muntazam nazoratini nazarda tutadi.

Asosiy qism. MTT ga ota-onalarni jalb qilishda, ota-onalarni sherik sifatida kutib olishganda va ularni hurmat qilishda, ular uyda va MTTda o'zlarining hissalarini qo'shishlari uchun zarur bo'lgan



yordamni hisobga olgan holda tarbiyalanuvchilarning yutuqlari va muvaffaqiyatlarining oshishini tan olishadi. Ota-onalar farzandlarining kamolini ko`rish orzusida ta`lim tashkiloti bilan har qanday hamkorlikka tayyor turishadi. Hamkorlik natijasida yuqori natijalarga erishish mumkunligini o`zлari ham tushinib yetishadi. Ta`lim va tarbiya uyda ham, maktabgacha ta`lim tashkilotida ham rejali, nazorat ostida olib borilsa, bolada o`z natijasini ko`rsatadi.

Farzand otasi yoki onasi yonida o`zini erkin tutadi. Shu boisdan tarbiyalanuvchilar orasida chetda qolib ketmasligi, kelajakda yetuk shaxs bo`lib shakillanishida ota-onan hamkorligi juda zarur bo`ladi. Uyda o`zgarishlari, yotib turishlari, tarbiyasida bo`layotgan o`zgarishlar haqida tarbiyachi bilan birgalikda ma`lumot almashilsa bolaning to`g`ri shakillanishiga ko`mak bo`ladi. Albatda bunda onalarining o`rni beqiyos. Shu o`rinda ta`kidlab o`tish joizki, ota va ona birgalikda farzandi bilan bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etsa, bu o`zлari uchun koni foyda.

Ota-onan hamkorligini samarali tashkil etishning asosiy nuqtalariga nazar tashlaymiz.

- ✓ Tarbiyachi, maktabgacha ta`lim tashkiloti va oilalar o`rtasidagi o`zaro aloqalarni rag'batlantiradi va qo'llab-quvvatlaydi;
- ✓ Har bir insonga o`z fikrlarini bildirishga va takliflar berishga ijozat berishi;
- ✓ Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlarga e`tibor qaratish; Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlisi, anjumanlar, savol-javob kechalari, turli ko`ngilochar tadbirlar;
- ✓ Ko`rsatmali ishlar. Ishning bu turi ko`rgazmali, bolalarning ishlarini namoyish

qilishi, ochiq eshiklar kuni, tarbiyachi tomonidan tayyorlangan axborot beruvchi devoriy gazetalar (Stent, buklet va posterlar), ota-onalar uchun kutubxona oilaviy tarbiyaning barcha masalalari bo`yicha materiallar solingan papka (Portfoliyosi).

Tarbiya qanchalik erta boshlansa, mevasi ham shuncha barvaqt ko`zga ko`rinadi. Shuning uchun ota-onalar va ta`lim muassasalari tarbiyachilari hamda pedagoglarning vazifasi yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog`lom, axloqan pok, barkamol inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Shuni ta`kidlash joizki, bola tarbiyasi bilan jiddiy shug`ullangan ota-onalarning farzandlari ta`lim muassasasida o`z imkoniyatlarini faoliyat jarayonida yoinki barcha jarayonlarda qiyalmasdan ko`rsata oladi. Oila va ta`lim muassasalarining o`zaro hamkorlik hamda hamjihatlikda ish olib borishlari bolani nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantiradi, balki uning ma`naviy shakllanishiga ham ijobiyligi ta`sir ko`rsatadi.

Hurmatli ota-onalarga tavsiyalarimiz quyidagilardan iborat! Aziz ota-onalar “Daraxt mevasi bilan, odam bolasi bilan go`zal”, - degan naqlning ma`nosini har tomonlama o`ylab korishlikni so`rab qolamiz, zero, mevasi chiroyli va shirin bo`lgan daraxt hamma uchun foydali.

Agarda farzandning kamoli va ertangi kuni uchun ta`lim tashkiloti bilan hamkorlikda ishlasa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Xulosa qilib aytganda bizning MTTda ota-onalar bolalarini tarbiyasiga bee`tibor bo`lishlari bolani qiziqishi kelajakda qanday yo`nalishda ketishi, mehr- muhabbat nimaligini bilmasiligi, tarbiyachini onasini o`rniga qo`yishligiga olib kelyapti, shuning uchun ota-onalar MTT bilan doyimiy aloqada bo`lishi kerak. Tadbir va bayram kechalarida ko`rib shu narsaning guvohi bo`ldikki, ta`lim tashkilotiga otasi yoki onasi kelib farzandi bilan birga tadbirlarda ishtirok etsa, bolani ham ruhiyati, ham ma`naviyati oshadi. Tengdoshlarining orasida qanchalik chaqqon va epchil ekanligini ota-onasiga ko`rastgisi keladi. Bundan ta`sirlanib ancha vaqt aynan shu voqeya bilan bo`lishgisi keladi. Ko`rinib turibdiki, aziz ota-onalar, sizning tashrifingiz bolaga juda katta kuch (Motivatsiya) beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vol. 1 No. 1 (2023): Maktabgacha ta`lim jurnali



2. Ilk qadam o‘quv dasturi yangi tahrir. T.2022, b-14
3. <https://yurxizmat.uz/oz/document/821>
4. <https://www.intereuroconf.com/index.php/ispc/article/download/553/384/385>
5. <https://www.uzedu.uz/uz>

worldlyknowledge.uz